**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**Dsc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI**

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MINTAQA KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

**UO‘K: 332.1:004(021)**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical sciences**

**TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI**
Raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish.....3

**ТОХИРОВА НИГОРА ЗОКИРЖОН КИЗИ**
Совершенствование механизма повышения эффективности региональных предприятий в контексте цифровой трансформации.....31

**TOHIROVA NIGORA ZOKIRJON KIZI**
Improving the mechanism for increasing the efficiency of regional enterprises in the context of digital transformation…….....60

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works….……..……..……...64

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**Dsc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI**

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MINTAQA KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Iqt7398 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Omanov Rustam Farmonovich**<br>Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich**<br>Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent |
| | **Ro‘ziyev Zafar Ikromovich**<br>Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Termiz davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.11.03-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “26” 11 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (586-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “13” 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil “13” 11 dagi 43-raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.X. Nabiyev**
Ilmiy darajalar beruvchi kengash raisi, i.f.d., professor

**G‘.A. Nabiyev**
Ilmiy darajalar beruvchi kengash kotibi, i.f.d. (DSc), professor

**A.O. Ochilov**
Ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘sish, korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (International Telecommunication Union - ITU) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda dunyo bo‘yicha Internetdan foydalanuvchilar soni qariyb 6,0 milliard kishiga yetib, jahon aholisining 74 foizini tashkil etgan. 2024-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 5,8 milliard kishi yoki 71 foizga teng bo‘lgan. Shunga qaramay, 2025-yilda dunyo aholisining 2,2 milliard nafari Internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki undan foydalanmagan[1]. Eurostat ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Yevropa Ittifoqidagi korxonalarning 52,7 foizi pullik bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalangan. Taqqoslash uchun, 2014-yilda bunday xizmatlardan foydalangan korxonalar ulushi atigi 17,8 foizni tashkil etgan[2]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi korxonalarning iqtisodiy natijalariga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi, ularning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi roli va mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli korxonalar samaradorligi bilan ularning raqamli rivojlanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash, ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va raqamli transformatsiya samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Jahonda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt, Big Data, IoT, ERP, CRM, Business Intelligence va bulutli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijadorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eurostat ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Yevropa Ittifoqidagi korxonalarning 20,0 foizi sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 6,5 foiz punktga oshgan[3] [1]. Mazkur tendensiyalar raqamli transformatsiyaning korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini kompleks baholash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu jihatdan, moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni KPI hamda Balanced Scorecard tizimlari asosida integratsiyalash, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy natijadorlikka ta’sirini ekonometrik modellashtirish va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni raqamli transformatsiya qilish, korxonalarda zamonaviy axborot tizimlari va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil yanvar–

---

[1] International Telecommunication Union (ITU). *Facts and Figures 2025: Internet use*. Geneva: ITU, 2025. URL: https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2025/10/15/ff25-Internet-use

[2] Eurostat. *53% EU enterprises used paid cloud services in 2025*. News article, 3 February 2026. URL: https://ec.europa.eu/eurostat/en/web/products-eurostat-news/w/ddn-20260203-1

[3] Eurostat. 20% of EU enterprises use AI technologies. 2025-yil 11-dekabr. URL: https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20251211-2

iyun oylarida respublikada aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 51,9 trln so‘mga yetgan, ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining real o‘sish sur’ati esa 16,9 foizni tashkil etgan[4]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning yanvar–iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 8,3 foizga, xizmatlar hajmi 15,8 foizga o‘sgan. Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar indeksi 76,4 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan investitsiyalar hajmi kamayganini anglatadi[5]. Ushbu ko‘rsatkichlar mintaqa korxonalarida ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va texnologik resurslardan samarali foydalanish, raqamli transformatsiya darajasini kompleks baholash hamda uning korxonalar faoliyati natijadorligiga ta’sirini aniqlash zaruratini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish, raqamli boshqaruv vositalarini KPI va Balanced Scorecard tizimlari bilan integratsiyalash, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda Qashqadaryo viloyati korxonalarining istiqboldagi rivojlanish parametrlarini ilmiy asoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirishning normativ-huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, hamda 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-395-sonli “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-iyuldagi O‘RQ-630-sonli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi [6] qonunlari korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va investitsion jarayonlarni takomillashtirishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Bundan tashqari, Vazirlar

[4] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2026-yil 3-avgust. https://stat.uz/uz/

[5] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyati raqamlarda (2026-yil yanvar–iyun holatiga). https://www.qashstat.uz/uz/

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/-5030957 . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qarori. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/uz/acts/-4800657. O O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/-7158604 O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-395-son Qonuni. Elektron hukumat to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/-2833860, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O‘RQ-630-son Qonuni. Innovatsion faoliyat to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/uz/acts/-4910391. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-son Qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/ru/docs/-4664142, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5458249?ONDATE=16.06.2021%2000

Mahkamasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid qarorlari mazkur yo‘nalishdagi tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mintaqa korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini yaxshilash mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim huquqiy va institutsional asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertasiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo’yicha, xorijiy olimlar tomonidan korxonalar faoliyati samaradorligini boshqarish, raqamli transformatsiya, raqamli biznes strategiyasi, strategik samaradorlikni baholash hamda raqamli texnologiyalar asosida biznes modellarini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilgan. Xorijiy olimlar P. Aghion, P. Howitt, E.I. Altman, M. Arellano, S. Bond, N. Bloom, J. Van Reenen, T. Bollerslev, E. Brynjolfsson, A. McAfee, L.M. Hitt va R.F. Englelarning [7] ilmiy ishlarida texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, axborot texnologiyalarining korxona faoliyati natijadorligidagi o‘rni, moliyaviy barqarorlikni baholash, iqtisodiy risklarni aniqlash va innovatsiyalarning uzoq muddatli rivojlanishga ta’siri kabi masalalar tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlari tomonidan raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, korxonalarni raqamlashtirish, raqamli yetuklik va raqamli transformatsiyani baholashning statistik hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. I.A. Blank, O.V. Efimova, V.V. Kovalev, M.N. Kreynina, G.V.

[7] Aghion P., Howitt P. A Model of Growth Through Creative Destruction // Econometrica. - 1992. - Vol. 60, No. 2. - P. 323–351. DOI: 10.2307/2951599. URL: https://doi.org/10.2307/2951599.
Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. - 1968. - Vol. 23, No. 4. - P. 589–609. DOI: 10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x. URL: https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x. Arellano M., Bond S. Some Tests of Specification for Panel Data: Monte Carlo Evidence and an Application to Employment Equations // The Review of Economic Studies. - 1991. - Vol. 58, No. 2. - P. 277–297. DOI: 10.2307/2297968. URL: https://doi.org/10.2307/2297968. Bloom N., Van Reenen J. Measuring and Explaining Management Practices Across Firms and Countries // The Quarterly Journal of Economics. - 2007. - Vol. 122, No. 4. - P. 1351–1408. DOI: 10.1162/qjec.2007.122.4.1351. URL: https://doi.org/10.1162/qjec.2007.122.4.1351. Bollerslev T. Generalized Autoregressive Conditional Heteroskedasticity // Journal of Econometrics. - 1986. - Vol. 31, No. 3. - P. 307–327. DOI: 10.1016/0304-4076(86)90063-1. URL: https://doi.org/10.1016/0304-4076(86)90063-1. Brynjolfsson E., Hitt L.M. Beyond Computation: Information Technology, Organizational Transformation and Business Performance // Journal of Economic Perspectives. - 2000. - Vol. 14, No. 4. - P. 23–48. DOI: 10.1257/jep.14.4.23. URL: https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.14.4.23. American Economic Association. Engle R.F. Autoregressive Conditional Heteroscedasticity with Estimates of the Variance of United Kingdom Inflation // Econometrica. - 1982. - Vol. 50, No. 4. - P. 987–1007. DOI: 10.2307/1912773. URL: https://www.jstor.org/stable/1912773.

Savitskaya, R.S. Sayfulin, A.D. Sheremet va E.S. Stoyanovalarning [8] ilmiy ishlarida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish, moliyaviy barqarorlikni aniqlash, investitsion qarorlarni asoslash, moliyaviy risklarni boshqarish va xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash masalalari keng yoritilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarni raqamlashtirish, elektron biznes va elektron tijoratni rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda raqamli transformatsiyaning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.O.Ochilov, A.A.Khudayarov, B.H. Berkinov, O.M. Abdullayev, R.H. Ayupov, G.R. Baltabayeva, S.B. Abdujabborov, S.S. G‘ulomov, F.D. Jo‘rayev, Sh.I. Mustafaqulov, X.S. Muxitdinov va G.F. Quvatovalarning [9] ilmiy izlanishlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion faoliyatni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalalari o‘rganilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlarda korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash, iqtisodiy risklarni aniqlash, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini o‘rganish, investitsion faoliyatni takomillashtirish hamda mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalalari tadqiq etilgan. Biroq raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalarining raqamli rivojlanish darajasi bilan iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash, KPI va Balanced Scorecard mezonlarini raqamli transformatsiya indikatorlari bilan integratsiyalash, korxonalarning tashkiliy-funksional holatini diagnostika qilish hamda raqamli

---

[8] Бланк И.А. Управление финансовой безопасностью предприятия. - Киев: Ника-Центр: Эльга, 2004. - 776 с. Ефимова О.В. Финансовый анализ. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Бухгалтерский учет, 2002. - 526 с. URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01000742144. Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. - Москва: Финансы и статистика, 2001. - 559 с. URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01000720628. Крейнина М.Н. Финансовое состояние предприятия: методы оценки. - Москва: ДИС, 1997. - 224 с. URL: https://library.cbr.ru/catalog/lib/books/270115/. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. - Минск: Новое знание, 2005. Сайфулин Р.С. - Sheremet A.D. bilan hammualliflikdagi manba: Sheremet A.D., Sayfulin R.S. Методика финансового анализа. - Москва: ИНФРА-М, 1996. - 172 с. URL: https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_RU_NLR_bibl_4659/. Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент: теория и практика. - Москва: Перспектива, 2010.

[9] A.O.Ochilov, A.A.Khudayarov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo‘llari // XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования). 2024. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-xizmatlar-sohasini-rivojlantirish-yollari. Berkinov B.H. Berkinov B.H., Abdujabborov S.B. Korxonada xarajatlarni kamaytirishning muqobil yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/13_B_Berkinov.pdf?utm_source . G‘ulomov S.S. G‘ulomov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. - 380 b. ISBN: 978-9943-13-802-5. https://akbt.urdu.uz/ . Mustafaqulov Sh.I. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. - Toshkent, 2017. - Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/696768/59edb904c7004.pdf?utm_source . Muxitdinov X.S. Bu olimning ilmiy rahbarligida bajarilgan, rasmiy OAK sahifasida qayd etilgan quyidagi dissertatsiyalar mintaqaviy iqtisodiyot va ekonometrik modellashtirish yo‘nalishiga mos: Jo‘raev F.D. Qishloq xo‘jalik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishni ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida). - PhD dissertatsiyasi. OAK rasmiy sahifasi. Quvatova G.F. Mintaqa sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarini rivojlantirish mexanizmlari (Qashqadaryo viloyati misolida). - PhD dissertatsiyasi. OAK rasmiy sahifasi

omillarning samaradorlikka ta’sirini ekonometrik usullar yordamida aniqlash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Xususan, Qashqadaryo viloyati korxonalari misolida moliyaviy-iqtisodiy, texnologik va hududiy ko‘rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda korxonalar samaradorligining istiqboldagi parametrlarini prognozlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur masalalarning kompleks yondashuv asosida yetarlicha o‘rganilmaganligi “Raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotining maqsadi va asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan OTM yoki ilmiy tashkilotning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertasiya ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq, xususan, «Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo‘llari va istiqbollari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi**. Raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish hamda Qashqadaryo viloyati misolida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish.

raqamli transformatsiyaning mintaqa korxonalari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarini aniqlash.

korxonalar samaradorligini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish va uni mintaqa sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash.

mintaqa korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini belgilovchi raqamli infratuzilma, boshqaruv, ma’lumotlar analitikasi, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligi ko‘rsatkichlarini kompleks baholash metodikasini takomillashtirish.

raqamli tizimlar integratsiyasi, ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish darajasini DI, DA, AI va AU indekslari hamda ROI mezoni asosida baholash usullarini takomillashtirish.

Qashqadaryo viloyati korxonalarining raqamli transformatsiya holati, iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda raqamli investitsiyalar samaradorligini baholash.

raqamli monitoring va risk-menejment ko‘rsatkichlarining korxonalar bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligiga ta’sirini baholash va ularni integratsiyalash mexanizmini takomillashtirish.

mintaqa korxonalari samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullar asosida baholash

mintaqa korxonalari samaradorligining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini prognozlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalarning raqamli transformatsiya sharoitidagi ishlab-chiqarish va boshqaruv faoliyati tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli va kompleks yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, indeks usuli, KPI va Balanced Scorecard, korrelyatsion-regression tahlil, ekonometrik modellashtirish, prognozlash hamda grafik va jadval usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mintaqa korxonalarida raqamli texnologiyalarning tarqoq joriy etilishi va ularning iqtisodiy natijadorligini baholash muammosini bartaraf etish maqsadida raqamli infratuzilma, boshqaruv, analitika, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligi ko‘rsatkichlarini integral baholash asosida raqamli samaradorlikni boshqarish mexanizmi takomillashtirilgan;

mintaqa korxonalarining bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish mexanizmi raqamli monitoring va risk-menejment indikatorlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilib, raqamli monitoring tizimlari qamrovining 80,9 foizga va risk-menejment qamrovining 17,5 foiz punktga oshishi natijasida bozorga moslashuv muddati 27 kundan 18 kungacha qisqarishi asoslangan;

mintaqa korxonalarida raqamli tizimlar integratsiyasi, ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish darajasini DI, DA, AI va AU indekslari hamda ROI mezoni asosida diagnostika qilish mexanizmi takomillashtirilib, ERP-CRM-API integratsiyasi, real vaqt analitikasi, predictive analytics va end-to-end avtomatlashtirish asosidagi amaliy yechim ishlab chiqilgan;

mintaqa korxonalari samaradorligining 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan trend prognoz varianti ishlab chiqilib, xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi va rentabellikning trend modellari asosida 2030-yilda mos ravishda 6 584 mlrd so‘m, 109,4 mln so‘m/xodim va 17,5 foizga yetishi, avtomatlashtirish darajasining 56 foizgacha oshishi isbotlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

mintaqa korxonalarida raqamli samaradorlikni kompleks baholash va boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy mexanizm raqamli infratuzilma, boshqaruv, analitika, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligi ko‘rsatkichlarini yagona integral tizimda baholash orqali raqamli texnologiyalarni tarqoq holda joriy etish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda korxonalarning raqamli rivojlanish ustuvorliklarini belgilashga xizmat qiladi.

mintaqa korxonalarining bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan raqamli monitoring va risk-menejmentga asoslangan amaliy boshqaruv mexanizmini qo‘llash natijasida raqamli monitoring tizimlari qamrovining 80,9 foizga, risk-menejment qamrovining 17,5 foiz punktga oshishi hamda bozorga moslashuv muddatining 27 kundan 18 kungacha qisqarishi

hisobiga korxonalarda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengaytirilgan.

korxonalarning raqamli transformatsiya holatini diagnostika qilish bo‘yicha shakllantirilgan amaliy baholash vositalari DI, DA, AI va AU indekslari hamda ROI mezonidan foydalanish orqali tizimlar integratsiyasi, ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish darajasini aniqlash, muammoli yo‘nalishlarni belgilash hamda ular uchun ERP-CRM-API integratsiyasi, real vaqt analitikasi, predictive analytics va end-to-end avtomatlashtirish asosidagi amaliy yechimlarni tanlash imkoniyati yaratilgan.

mintaqa korxonalari samaradorligini istiqbolda rejalashtirish uchun ishlab chiqilgan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari asosida 2030-yilda xizmatlar hajmini 6 584 mlrd so‘mga, mehnat unumdorligini bir xodimga 109,4 mln so‘mga, rentabellikni 17,5 foizga va avtomatlashtirish darajasini 56 foizga yetkazish bo‘yicha maqsadli parametrlar belgilangan bo‘lib, ulardan korxonalarning raqamli transformatsiya strategiyasi va o‘rta muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda amaliy asos sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligining rasmiy statistik, tahliliy va amaliy ma’lumotlaridan olinganligi, mintaqa korxonalari faoliyatiga oid ko‘rsatkichlarning iqtisodiy-statistik, indeks, integral baholash, ekonometrik va trend prognozlash usullari asosida qayta ishlanganligi, olingan natijalarning o‘zaro qiyosiy tahlil qilinganligi hamda ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliy ma’lumotlar bilan asoslanganligi bilan izohlanadi. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hozir O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tizimida faoliyat yuritadi. Raqamli transformatsiyaga doir hududiy tadbirlarda esa Qashqadaryo viloyati hokimligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi tegishli ijrochi tashkilotlar sifatida ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari rivojlantirilgani, raqamli infratuzilma, boshqaruv, analitika, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligini integral baholashga asoslangan raqamli samaradorlik mexanizmi takomillashtirilgani, korxonalarning bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligini baholashda raqamli monitoring va risk-menejment indikatorlari uyg‘unlashtirilgani, shuningdek DI, DA, AI, AU va ROI ko‘rsatkichlari asosida raqamli transformatsiya jarayonlarini diagnostika qilish hamda 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan trend prognoz modelining ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Tadqiqotda olingan nazariy va uslubiy natijalar mintaqaviy iqtisodiyot, korxonalar boshqaruvi va raqamli transformatsiya yo‘nalishlaridagi keyingi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyati hokimligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda hududda faoliyat yuritayotgan korxonalarda raqamli transformatsiya darajasini baholash, raqamli monitoring va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, ERP-CRM-API integratsiyasini joriy etish, real vaqt analitikasi va sun’iy intellekt asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, korxonalar samaradorligini prognozlash hamda 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli iqtisodiyot”, “Korxona iqtisodiyoti”, “Strategik menejment” va “Mintaqaviy iqtisodiyot” fanlarini o‘qitishda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

mintaqa korxonalarida raqamli texnologiyalarning tarqoq joriy etilishi va ularning iqtisodiy natijadorligini baholash muammosini hal etishga qaratilgan, raqamli infratuzilma, boshqaruv, analitika, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligi ko‘rsatkichlarini integral baholash asosidagi raqamli samaradorlikni boshqarish mexanizmi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat hokimligi 2026 yil 19-oktabrdagi №02-02/13767-son ma’lumotnoma). Natijada korxonalarda raqamli transformatsiyaning holatini kompleks baholash, muammoli yo‘nalishlarni aniqlash va raqamli investitsiyalarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyati yaratilgan;

mintaqa korxonalarining bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish bo‘yicha raqamli monitoring va risk-menejment indikatorlarini integratsiyalashga asoslangan mexanizmi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat hokimligi 2026 yil 19-oktabrdagi №02-02/13767-son ma’lumotnoma). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida raqamli monitoring tizimlari qamrovi 80,9 foizga, risk-menejment qamrovi 17,5 foiz punktga oshib, bozor o‘zgarishlariga moslashuv muddati 27 kundan 18 kungacha qisqarishiga erishilgan;

mintaqa korxonalarida raqamli tizimlar integratsiyasi, ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish darajasini DI, DA, AI va AU indekslari hamda ROI mezoni asosida diagnostika qilish mexanizmi, shuningdek ERP-CRM-API integratsiyasi, real vaqt analitikasi, predictive analytics va end-to-end avtomatlashtirish asosidagi amaliy yechimlar bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat hokimligi 2026 yil 19-oktabrdagi №02-02/13767-son ma’lumotnoma). Natijada raqamli jarayonlarning integratsiyalashuv darajasini baholash, ma’lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini tezlashtirish hamda raqamli investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

mintaqa korxonalari samaradorligining 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan trend prognoz varianti bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida

foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat hokimligi 2026 yil 19-oktabrdagi №02-02/13767-son ma’lumotnoma). Prognoz natijalariga ko‘ra, 2030-yilda xizmatlar hajmini 6 584 mlrd so‘mga, mehnat unumdorligini 109,4 mln so‘m xodimga, rentabellikni 17,5 foizga, avtomatlashtirish darajasini esa 56 foizga yetkazish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari xalqaro va respublika anjumanlarida, xususan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi**.Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 4 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishning nazariy asoslari**” nomli birinchi bobida Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishning zamonaviy konsepsiyalari, Raqamli transformatsiyaning mintaqaviy korxonalar faoliyatini samaradorligiga ta’siri va Mintaqaviy korxonalar samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalar va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqobatning kuchayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi korxonalar faoliyatini raqamlashtirish zaruratini oshirmoqda. Raqamli transformatsiya sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar, IoT, ERP tizimlari va raqamli platformalar orqali ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Resurslardan samarali foydalanish, iste’molchilar talabiga tez moslashish va xalqaro bozorlarda raqobatlashish zarurati raqamli transformatsiyani mintaqa korxonalari samaradorligi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim strategik omiliga aylantirmoqda. Korxonalarda raqamli transformatsiyaning joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligi oshadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezlashadi va resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi (1-rasm).




**1-rasm. "Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishning konseptual modeli"[10]**

1-rasmda transformatsiya sharoitida korxonalar samaradorligini oshirishning konseptual modeli raqamli infratuzilma, boshqaruv tizimi, innovatsion ishlab chiqarish, analitika va monitoring, inson kapitali hamda axborot xavfsizligi kabi olti yo'nalishning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi.

Model ishlab chiqarish, logistika, marketing, moliyaviy va strategik boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali korxona faoliyatini takomillashtirishni nazarda tutadi. Uning amaliy ahamiyati korxonalardagi raqamli rivojlanish darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash, raqamli investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini aniqlash imkoniyati bilan izohlanadi. Bunda KPI, Balanced Scorecard, rentabellik, mehnat unumdorligi va investitsiyalar qaytimi

[10] Muallif tomonidan M. Porter, R.S. Kaplan va D.P. Norton, W.E. Deming, P.F. Drucker, J.A. Schumpeter, G. Vial, P.C. Verhoef va boshqa olimlarning ilmiy ishlari hamda OECD materiallari asosida ishlab chiqilgan.

(ROI) ko‘rsatkichlaridan foydalanish orqali natijalarni baholash mumkin. Mazkur model Qashqadaryo viloyati korxonalari faoliyatini tahlil qilish, samaradorlikni oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va raqamli transformatsiyani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

**Raqamli transformatsiyaning korxonalar samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari** [11]

| Yo‘nalish | Asosiy ko‘rsatkichlar | Raqamli transformatsiya ta’siri mexanizmi | Samaradorlikka ta’siri |
|---|---|---|---|
| **Moliyaviy samaradorlik** | • Sotuv hajmi<br>• Foyda<br>• Rentabellik darajasi | Raqamli kanallar orqali mintaqaviy korxonalar faoliyati hajmi oshadi, xarajatlar kamayadi, narx belgilash samaradorligi yaxshilanadi | Moliyaviy natijalar yaxshilanadi, foyda va rentabellik oshadi |
| **Mijozlar samaradorligi** | • Mijozlar qoniqish darajasi<br>• Mijozlarni saqlab qolish darajasi<br>• Yangi mijozlar soni | Raqamli xizmatlar qulayligi ortadi, shaxsiylashtirilgan yondashuv va tezkor mintaqaviy korxonalar faoliyati ko‘rsatish ta’minlanadi | Mijozlar qoniqishi va sodiqligi oshadi, bozor ulushi kengayadi |
| **Jarayonlar samaradorligi** | • Mintaqaviy korxonalar faoliyati ko‘rsatish vaqti<br>• Xatoliklar soni<br>• Jarayonlar avtomatlashtirish darajasi | Jarayonlar avtomatlashtiriladi, ma’lumotlar real vaqtda tahlil qilinadi, qarorlar tezkor qabul qilinadi | Mintaqaviy korxonalar faoliyati ko‘rsatish tezligi oshadi, xatoliklar kamayadi, unumdorlik ortadi |
| **Resurslardan foydalanish samaradorligi** | • Xodimlar unumdorligi<br>• Texnologiyalarga investitsiya qaytimi<br>• Operatsion xarajatlar | Resurslar optimal taqsimlanadi, takroriy ishlar bartaraf etiladi, texnologiyalar samarali ishlatiladi | Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, xarajatlar kamayadi |
| **Innovatsion samaradorlik** | • Yangi xizmatlar soni<br>• Raqamli yechimlar ulushi • Innovatsion loyihalar soni | Ma’lumotlarga asoslangan tahlil va mijoz ehtiyojlarini chuqur tushunish yangi xizmatlarni yaratishga imkon beradi | Innovatsion faoliyat kuchayadi, raqobatbardoshlik va qiymat yaratiladi |

1-jadvalda raqamli transformatsiyaning korxona samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari beshta asosiy yo‘nalish bo‘yicha indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan. Ular moliyaviy natijalar, mijozlar qoniqishi, biznes jarayonlari, resurslardan foydalanish va innovatsion rivojlanishni qamrab oladi. Moliyaviy samaradorlik operatsion xarajatlar, rentabellik va raqamli investitsiyalar qaytimi orqali baholanadi. Mijozlar samaradorligi qoniqish va sodiqlik darajasi, biznes jarayonlari esa avtomatlashtirish, operatsiyalarni bajarish vaqti va xatolar soni bilan aniqlanadi. Resurslardan foydalanish mehnat unumdorligi hamda energiya va materiallar sarfi orqali, innovatsion samaradorlik esa yangi mahsulotlar va raqamli yechimlar ulushi orqali baholanadi. Umuman, mazkur indikatorlar raqamli transformatsiya natijalarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi (2-rasm).

[11] Muallif tomonidan raqamli transformatsiya va korxona samaradorligini baholash yondashuvlari asosida tuzilgan.




**2-rasm. Raqamli transformatsiya, mediatsiya omillari va venchur kapital ta'siri asosida korxonalar samaradorligini oshirish modeli[12]**

2-rasmda raqamli transformatsiyaning mintaqa korxonalari samaradorligiga ta'sir mexanizmi aks ettirilgan. Modelda raqamli infratuzilma, boshqaruv, ma'lumotlar analitikasi, innovatsiya, inson kapitali va axborot xavfsizligi asosiy omillar sifatida belgilangan. Ularning o'zaro uyg'unligi biznes jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarning moliyaviy natijalari, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshligini yaxshilash uchun sharoit yaratiladi. Mazkur model dissertatsiyaning birinchi ilmiy yangiligida nazarda tutilgan integral baholash mexanizmining konseptual asosini ifodalaydi.

Tadqiqotning muhimligi korxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni bilan belgilanadi. Xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, bandlikni

[12] Muallif tomonidan raqamli transformatsiya va korxona samaradorligiga oid ilmiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

ta’minlash, aholi turmush samaradorligini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohada samaradorlikning oshishi nafaqat alohida korxona daromadining ko‘payishiga, balki butun tarmoqning barqaror rivojlanishiga ham mintaqaviy korxonalar faoliyati qiladi. Raqamli transformatsiya esa xizmatlarni tez, shaffof, individual yondashuv asosida va kam xarajat bilan ko‘rsatish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya korxonalar faoliyatining barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatib, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish, mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash, vaqt va resurslar sarfini kamaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu jarayon faqat raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki boshqaruv tizimi, biznes-modellar, mijozlar bilan munosabatlar va xodimlar malakasini takomillashtirishni ham qamrab oladi. Mazkur yo‘nalish korxonalarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli platformalardan foydalanish, marketing faoliyatini rivojlantirish, resurslar samaradorligini baholash va mehnat unumdorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, raqamli ko‘nikmalarning pastligi, axborot xavfsizligi va investitsion xarajatlar kabi muammolarni ham hisobga olish zarur.

Shu sababli raqamli transformatsiya sharoitida mintaqa korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy korxonalar faoliyatini amaldagi holati tahlili**” nomli ikkinchi bobida Mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik tahlili, Mintaqada korxonalarni KPI va Balanced Scorecard asosida samaradorligni baholash va Mintaqaviy korxonalar samaradorligni oshirish bo‘yicha strategik ko’rsatkichlar tahlililari tadqiq etilgan.

Mintaqaviy korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va innovatsion rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan ularning tashkiliy va funksional boshqaruv tizimining samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli korxonalar faoliyatini tashkiliy va funksional diagnostik tahlil qilish zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Korxonalar samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik tahlili korxona faoliyatini kompleks baholash, ichki imkoniyatlarni aniqlash va samaradorlikni oshirishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil bo‘ladi (2-jadval).

2-jadval

**Korxonalar samaradorligining tashkiliy diagnostik tahlili**[13]

| Yo‘nalish | Asosiy ko‘rsatkichlar | Tahlil mazmuni | Samaradorlikka ta’siri |
|---|---|---|---|
| **Tashkiliy tuzilma** | Boshqaruv darajalari soni, bo‘linmalar soni | Tashkiliy strukturaning soddaligi va moslashuvchanligi baholanadi | Ortiqcha bo‘g‘inlar qisqaradi, boshqaruv tezlashadi |
| **Boshqaruv samaradorligi** | Qaror qabul qilish tezligi, boshqaruv xarajatlari | Rahbariyatning qaror qabul qilish jarayoni va uning natijadorligi aniqlanadi | Qarorlar samaradorligi oshadi, xatoliklar kamayadi |
| **Axborot oqimlari** | Axborot uzatish tezligi, aniqligi | Ichki kommunikatsiya va ma’lumot almashinuvi samaradorligi tahlil qilinadi | Boshqaruv samaradorligi va tezkorlik oshadi |
| **Tashkiliy moslashuvchanlik** | O‘zgarishlarga moslashish darajasi | Korxonaning bozor talablariga moslashuv darajasi baholanadi | Raqobatbardoshlik oshadi |
| **Kadrlar boshqaruvi** | Xodimlar malakasi, motivatsiya darajasi | Inson kapitali va kadrlar siyosati tahlil qilinadi | Mehnat unumdorligi oshadi |

2-jadval korxonalarda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tashkiliy diagnostik tahlilning asosiy yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Korxona samaradorligi uning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari, axborot almashinuvi va kadrlar salohiyatiga bevosita bog‘liq. Xususan, tashkiliy tuzilmani baholashda boshqaruv darajalari va tarkibiy bo‘linmalar soni muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ortiqcha boshqaruv bo‘g‘inlari qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi va xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli boshqaruv tuzilmasini soddalashtirish va uning moslashuvchanligini oshirish korxona faoliyati samaradorligini ta’minlashning muhim shartidir.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida noaniqlik va texnologik o‘zgarishlarning kuchayishi korxonalardan boshqaruv tizimlarini muntazam takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, tashkiliy-funksional diagnostik tahlil korxonaning ichki jarayonlarini baholash, boshqaruvdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘nalishlarini belgilash vositasi hisoblanadi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarini asoslash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi (3-rasm).

[13] Muallif ishlanmasi.




**3-rasm. Funksional diagnostika va tizimli tahlil usullari[14]**

Funksional diagnostika va tizimli tahlil usullari hamda korxonalar samaradorligining tashkiliy diagnostik tahlili o‘zaro bog‘liq yondashuvlar hisoblanadi. Funksional diagnostika korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari va bajariladigan vazifalar samaradorligini o‘rganishga xizmat qilsa, tashkiliy diagnostika boshqaruv tuzilmasi, vakolatlar taqsimoti, axborot almashinuvi va kadrlar salohiyatini baholashga yo‘naltiriladi. Mazkur yondashuvlarni birgalikda qo‘llash korxona faoliyatiga ta’sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillarni kompleks o‘rganish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyati mintaqaviy korxonalari faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda funksional diagnostika qilish mezonlari muallif tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar boshqaruv samaradorligi, ishlab chiqarish jarayonlari, resurslardan foydalanish, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xodimlar salohiyati va risklarni boshqarish yo‘nalishlarini qamrab oladi (3-jadval).

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati misolida mintaqaviy korxonalar faoliyatini funksional diagnostika qilish mezonlari[15]**

| Tahlil usuli | Asosiy mezon | Qashqadaryo viloyati misolida qo‘llanishi | Aniqlangan muammo | Takomillashtirish yo‘nalishi |
|---|---|---|---|---|
| **Funksional tahlil** | Yaxlitlik va tizimlilik | Sanoat va servis korxonalarida boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlari o‘zaro | Bo‘limlar o‘rtasida muvofiqlashtirish sustligi | Integratsiyalashgan ERP va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish |

[14] M. Z. Zgurovskiy va N. D. Pankratova (2011), Yu. P. Surmin (2003) asarlaridagi tizimli tahlil yondashuvlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

[15] Muallif ishlanamsi

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | bog‘liqligi tahlil qilindi | | |
| **Aksiologik tahlil** | Qadriyat va maqsad uyg‘unligi | Korxonalarda xodimlar motivatsiyasi va korporativ madaniyat darajasi baholandi | Xodimlar sodiqligi va tashabbuskorlik darajasi past | Rag‘batlantirish va korporativ qadriyatlar tizimini rivojlantirish |
| **Konseptual tahlil** | Natijadorlik va mahsuldorlik | Korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi va foydalilik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi | Resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli emas | Innovatsion texnologiyalar va avtomatlashtirishni kengaytirish |
| **Vaziyatli tahlil** | Moslashuvchanlik va tuzilmaviylik | Pandemiya va bozor o‘zgarishlari sharoitida korxonalar faoliyati baholandi | Ayrim korxonalarda bozorga moslashuv sust | Moslashuvchan strategik boshqaruv tizimini shakllantirish |
| **Monitoring tahlili** | Haqiqiy holatni aniqlash | Korxonalarning moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlari doimiy kuzatildi | Ma’lumotlar bazasi va analitika tizimi yetarli emas | BI (Business Intelligence) va monitoring platformalarini joriy qilish |
| **Diagnostik tahlil** | Og‘ishlarni aniqlash | Ishlab chiqarish va boshqaruvdagi samarasizliklar aniqlashtirildi | Xarajatlar yuqoriligi va vaqt yo‘qotishlari | Lean management va Kaizen usullarini qo‘llash |
| **Tashkiliy tahlil** | Boshqaruv samaradorligi | Hududiy korxonalarda boshqaruv tuzilmasi va vakolatlar taqsimoti o‘rganildi | Ortib ketgan byurokratik jarayonlar | Boshqaruv strukturasini optimallashtirish |
| **Ogohlantiruvchi tahlil** | Xavflarni oldindan baholash | Investitsion va bozor xavflari tahlil qilindi | Raqobat muhitiga tayyorgarlik sust | Risk-menejment va strategik rejalashtirishni kuchaytirish |

3-jadvalda Qashqadaryo viloyati mintaqaviy korxonalar faoliyatini funksional diagnostika qilishning asosiy mezonlari belgilandi. Mazkur mezonlar korxonalarning tashkiliy tuzilmasi, ishlab chiqarish jarayonlari, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish darajasi va risklarni boshqarish holatini kompleks baholashga imkon beradi. Ushbu yondashuvni amaliy jihatdan qo‘llash uchun belgilangan mezonlarni aniq ko‘rsatkichlar bilan ifodalash hamda ularning vaqt davomida o‘zgarishini tahlil qilish zarur. Shu maqsadda korxonalarning avtomatlashtirish darajasi, ERP/CRM tizimlaridan foydalanish, mehnat unumdorligi, rentabellik va boshqa ko‘rsatkichlari dinamikasini o‘rganish taklif etiladi. Mazkur ko‘rsatkichlar 4-jadvalda tizimlashtiriladi.

4-jadval

**Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy korxonalar faoliyatining funksional diagnostik va tizimli tahlili (2023-2025 yillar holati)**[16]

| Tahlil yo‘nalishi | Baholash ko‘rsatkichlari | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | 2023–2025-yillardagi o‘zgarish | Diagnostik holat |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Funksional tahlil | Jarayonlar avtomatlashtirilgan korxonalar ulushi (%) | 34,2 | 41,8 | 49,6 | +15,4 foiz punkt | O‘rta darajada rivojlangan |
| Funksional tahlil | ERP/CRM tizimi joriy etilgan korxonalar soni (ta) | 418 | 563 | 742 | +77,5% | O‘sish tendensiyasi mavjud |
| Aksiologik tahlil | Xodimlar motivatsiya indeksi (%) | 61,5 | 66,3 | 71,4 | +9,9 foiz punkt | Barqaror yaxshilanmoqda |

[16] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Aksiologik tahlil | Kadrlar almashinuvi darajasi (%) | 18,2 | 16,7 | 14,1 | −4,1 foiz punkt | Barqarorlashmoqda |
| Konseptual tahlil | Mehnat unumdorligi (mln so‘m/xodim) | 128 | 146 | 171 | +33,6% | Samaradorlik oshmoqda |
| Konseptual tahlil | Rentabellik darajasi (%) | 11,8 | 13,6 | 15,2 | +3,4 foiz punkt | Ijobiy o‘sish |
| Vaziyatli tahlil | Bozorga moslashuv tezligi (kun) | 27 | 22 | 18 | −9 kun (−33,3%) | Moslashuvchanlik oshgan |
| Vaziyatli tahlil | Yangi texnologiya joriy etilgan korxonalar ulushi (%) | 24,5 | 31,7 | 39,4 | +14,9 foiz punkt | Innovatsion faollik oshgan |
| Monitoring tahlil | Raqamli monitoring tizimiga ega korxonalar soni (ta) | 362 | 497 | 655 | +80,9% | Diagnostika kuchaygan |
| Diagnostik tahlil | Operatsion xarajatlar ulushi (%) | 34,8 | 32,1 | 29,7 | −5,1 foiz punkt | Xarajatlar kamaymoqda |
| Tashkiliy tahlil | Boshqaruv pog‘onalari o‘rtacha soni | 5,2 | 4,8 | 4,1 | −1,1 (−21,2%) | Optimallashtirish kuzatilgan |
| Ogohlantiruvchi tahlil | Risk-menejment tizimiga ega korxonalar ulushi (%) | 19,3 | 27,6 | 36,8 | +17,5 foiz punkt | Xavf boshqaruvi rivojlanmoqda |

4-jadval ma’lumotlari Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy korxonalar faoliyatining tashkiliy va funksional samaradorligi 2023-2025 yillarda sezilarli yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, jarayonlarni avtomatlashtirish va ERP/CRM tizimlarini joriy etish ko‘rsatkichlari yil sayin oshib borgan bo‘lib, bu hududiy korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlari faollashganidan dalolat beradi.

Tahlillarga ko‘ra, mehnat unumdorligi 2023-yildagi 128 mln so‘mdan 2025-yilda 171 mln so‘mga yetgan, rentabellik darajasi esa 15 foizdan oshgan. Bu korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlar ulushining 34,8 foizdan 29,7 foizga kamayishi boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashganligini anglatadi.

Xodimlar motivatsiyasi va tashkiliy barqarorlik ham yaxshilanib, kadrlar almashinuvi darajasi pasaygan. Bundan tashqari, risk-menejment va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi korxonalarning bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanligini oshirib, strategik boshqaruv samaradorligini kuchaytirgan. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyati samaradorligini baholashda strategik maqsadlar va amaldagi natijalar o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda KPI va Balanced Scorecard (BSC) yondashuvlari asosida moliyaviy samaradorlik, ichki biznes jarayonlari, innovatsion rivojlanish, inson kapitali va raqamli boshqaruv yo‘nalishlarini qamrab oluvchi baholash modeli shakllantiriladi. Mazkur modelda rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar amaldagi natijalar bilan taqqoslanib, ularning bajarilish darajasi hamda strategik maqsadlarga erishish holati baholanadi (5-jadval).

5-jadval

**Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyati samaradorligini KPI va Balanced Scorecard (BSC) asosida kompleks baholash modeli (2025 yil)[17]**

| Strategik yo‘nalish | KPI ko‘rsatkichi | Reja (%) | Amaldagi natija (%) | Bajarilish darajasi (%) | BSC bahosi (0–1) | Holat |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Moliyaviy samaradorlik** | Rentabellik darajasi | 14.0 | 15.2 | 108.6 | 0.86 | Yuqori |
| **Mijozlar bilan ishlash** | Mijozlar qoniqish indeksi | 75 | 81 | 108.0 | 0.81 | Barqaror |
| **Ichki biznes jarayonlari** | Jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi | 45 | 49.6 | 110.2 | 0.83 | Ijobiy |
| **Innovatsion rivojlanish** | Yangi texnologiya joriy qilgan korxonalar ulushi | 35 | 39.4 | 112.5 | 0.79 | O‘suvchi |
| **Inson kapitali** | Xodimlar malaka oshirish darajasi | 68 | 72 | 105.9 | 0.72 | O‘rta-yuqori |
| **Raqamli boshqaruv** | ERP/CRM tizimidan foydalanish darajasi | 38 | 42.3 | 111.3 | 0.76 | Rivojlanmoqda |
| **Operatsion samaradorlik** | Operatsion xarajatlarni qisqartirish | 8 | 10.5 | 131.2 | 0.88 | Juda yuqori |
| **Investitsion faollik** | Innovatsion investitsiyalar ulushi | 20 | 23.8 | 119.0 | 0.74 | Barqaror |

5-jadvalda Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyati samaradorligini KPI va BSC asosida baholash uchun rejalashtirilgan va amaldagi ko‘rsatkichlarni taqqoslash yondashuvi aks ettirilgan. Jadvalda rentabellik, mijozlar qoniqishi, jarayonlarni avtomatlashtirish, xodimlar malakasini oshirish, raqamli boshqaruv va operatsion xarajatlarni qisqartirish kabi yo‘nalishlar qamrab olingan.

KPI ko‘rsatkichlarini reja bilan taqqoslash korxona faoliyatining alohida yo‘nalishlarini baholash imkonini beradi. Biroq turli o‘lchov birliklarida ifodalangan ko‘rsatkichlarni yagona integral mezonga birlashtirish uchun ularni normallashtirish va har bir ko‘rsatkichning umumiy bahodagi ahamiyatini belgilash zarur. Shu maqsadda Min–Max normallashtirish usuli hamda Analytic Hierarchy Process (AHP) asosida vazn koeffitsiyentlarini aniqlash yondashuvi qo‘llanilishi mumkin. Ushbu usullar yordamida hisoblangan integral strategik indeks 6-jadvalda keltirilgan.

[17] Muallif tomonidan KPI va Balanced Scorecard yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

6-jadval

**Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasining BSC va AHP asosidagi integral strategik samaradorlik bahosi (2025-yil)[18]**

| Ko‘rsatkich yo‘nalishi | Asosiy indikator | Amaldagi qiymat | Min-Max normallashtirilgan indeks (0-1) | AHP vazni (Wi) | Integral ball (Ii × Wi) |
|---|---|---|---|---|---|
| **Moliyaviy samaradorlik** | Rentabellik darajasi (%) | 15.2 | 0.76 | 0.30 | 0.228 |
| **Mijozlar bilan ishlash** | Mijozlar qoniqish darajasi (%) | 81 | 0.81 | 0.20 | 0.162 |
| **Ichki biznes jarayonlari** | Jarayonlarni avtomatlashtirish (%) | 49.6 | 0.62 | 0.18 | 0.112 |
| **Innovatsiya va rivojlanish** | Yangi texnologiya joriy qilgan korxonalar ulushi (%) | 39.4 | 0.57 | 0.15 | 0.086 |
| **Inson kapitali** | Xodimlar motivatsiyasi indeksi (%) | 71.4 | 0.71 | 0.10 | 0.071 |
| **Raqamli boshqaruv** | ERP/CRM tizimi joriy etilgan korxonalar ulushi (%) | 42.3 | 0.60 | 0.07 | 0.042 |
| **Jami strategik indeks** | | | | **1.00** | **0.701** |

6-jadvalda Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyatini BSC asosida kompleks baholash uchun normallashtirilgan indekslar, AHP vazn koeffitsiyentlari va ularning integral bahoga qo‘shgan hissasi ko‘rsatilgan. Har bir indikatorning normallashtirilgan qiymati tegishli vazn koeffitsiyentiga ko‘paytirilib, olingan natijalar yig‘indisi orqali umumiy strategik indeks hisoblanadi. Jadvalda keltirilgan qiymatlar asosida integral strategik indeks 0,701 ga teng. Ushbu ko‘rsatkich tanlangan indikatorlarni yagona bahoga birlashtiradi va korxona faoliyatining turli strategik yo‘nalishlarini o‘zaro taqqoslashga imkon beradi. Biroq integral indeksni “o‘rta-yuqori” yoki boshqa daraja sifatida talqin qilish uchun baholash chegaralari oldindan belgilanishi, normallashtirish mezonlari hamda AHP vaznlari esa asoslanishi zarur. Shuningdek, yakuniy natijaning ishonchliligi boshlang‘ich ma’lumotlarning aniqligiga bog‘liq. Umuman olganda, KPI va BSC yondashuvlarini birgalikda qo‘llash korxonaning alohida faoliyat yo‘nalishlarini baholash hamda ularni yagona integral ko‘rsatkichda umumlashtirish imkonini beradi. Mazkur model raqamli transformatsiya, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

BSC integral modeli:

$$BSCI = \sum_{i=1}^{n} W_i \times I_i = 0{,}701$$

BSC integral modeli Qashqadaryo viloyati korxonalarining integral strategik samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Modelda mehnat unumdorligi, xarajatlar samaradorligi, rentabellik, aktivlar qaytimi va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinadi. Ularni tizimli tahlil qilish korxonalar faoliyatidagi mavjud muammolarni

[18] Muallif tomonidan Balanced Scorecard yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

aniqlash va samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

BSC integral indeksi natijalarini baholash mezonlari asosida talqin qilish korxonalarning strategik maqsadlarga erishish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruvni rivojlantirish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va mijozlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi. Mazkur yondashuv Qashqadaryo viloyati korxonalarining integral strategik samaradorligini baholash hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi (7-jadval).

7-jadval

**Qashqadaryo viloyati korxonalarining iqtisodiy va raqamli rivojlanish bo‘yicha strategik ko‘rsatkichlari bahosi[19]**

| Ko‘rsatkich | Formula | Real ma’lumot | Baho |
|---|---|---|---|
| **Mehnat unumdorligi** | MU = XH / XS | 54 118 mlrd so‘m / 500 ming | ≈108 mln so‘m/xodim |
| **Xizmatlar o‘sish sur’ati** | – | 111–113 % | O‘rtacha-yuqori |
| **Jon boshiga xizmat** | – | 4,6 mln so‘m | Past |
| **Xarajatlar samaradorligi** | XSE = XH / UX | 3,7 % o‘sish | O‘rtacha |
| **Raqamli o‘sish samarasi** | RTS | 112–113 % | O‘rtacha |
| **Hududiy konsentratsiya** | – | Qarshi ulushi yuqori | Nomutanosib |

7-jadval jadvalda Qashqadaryo viloyatida korxonalar samaradorligini tavsiflash uchun mehnat unumdorligi, xizmatlar o‘sish sur’ati, jon boshiga xizmatlar hajmi, xarajatlar samaradorligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va hududiy konsentratsiya kabi ko‘rsatkichlar tizimlashtirilgan. Ushbu indikatorlar hududiy iqtisodiy faollikni baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va korxonalar faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. 2025-yilda Qashqadaryo viloyatida bozor xizmatlari hajmi 54 118,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 13,6 foizga oshgan. Bu xizmatlar bozorida o‘sish kuzatilganini ko‘rsatadi. Biroq xizmatlar hajmining o‘sishi korxonalar samaradorligining barcha tarkibiy qismlari yaxshilanganini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi. Buning uchun mehnat unumdorligi, xarajatlar, rentabellik va raqamli texnologiyalarning natijadorligi kabi ko‘rsatkichlarni alohida baholash zarur.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida korxonalar hajm jihatidan o‘sayotgan bo‘lsa-da, samaradorlik hali to‘liq shakllanmagan. Asosiy muammolar xizmatlar samaradorligi va qamrovi, xarajatlar samaradorligi hamda hududiy nomutanosiblik bilan bog‘liq. Shu sababli kelgusida samaradorlikni oshirish uchun xizmatlarni hududiy kengaytirish, raqamlashtirishni

[19]Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

chuqurlashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur (8-jadval).

8-jadval

**Qashqadaryo viloyati mintaqaviy korxonalari samaradorligini strategik yo‘nalishlar kesimida kompleks baholash [20]**

| Yo‘nalish | Ko‘rsatkich | Qiymat (0–1) | ulush | Yakuniy hissa |
|---|---|---|---|---|
| **Moliyaviy samaradorlik** | Rentabellik va o‘sish | 0.75 | 0.30 | 0.225 |
| **Mehnat unumdorligi** | MU | 0.65 | 0.20 | 0.13 |
| **Mijozlar qamrovi** | Jon boshiga xizmat | 0.50 | 0.20 | 0.10 |
| **Jarayonlar samaradorligi** | XSE | 0.60 | 0.15 | 0.09 |
| **Raqamlashtirish** | RTS | 0.60 | 0.10 | 0.06 |
| **Hududiy balans** | Konsentratsiya | 0.45 | 0.05 | 0.022 |
| **Umumiy samaradorlik** | | | | ≈0.63 (63%) |

Qashqadaryo viloyatida korxonalarning samaradorligini strategik yo‘nalishlar kesimida kompleks baholash imkonini beradi va undagi har bir komponent umumiy natijaga qanday hissa qo‘shayotganini aniq ko‘rsatadi. Tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng katta ulush moliyaviy samaradorlikka to‘g‘ri kelmoqda (0.225). Bu xizmatlar hajmining o‘sishi va rentabellik darajasining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Demak, korxonalar iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanmoqda va umumiy samaradorlikning asosiy drayveri aynan moliyaviy natijalardir.

Mehnat unumdorligi 0.13 ulush bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Bu mintaqaviy korxonalar faoliyati hajmining mavjudligini ko‘rsatsa-da, uning maksimal darajada emasligini bildiradi. Ya’ni xodimlar samaradorligi mavjud, lekin uni oshirish orqali umumiy samaradorlikni sezilarli yaxshilash mumkin. Mijozlar qamrovi (0.10) o‘rtacha darajada bo‘lib, bu xizmatlar aholiga yetarli darajada yetib bormayotganini ko‘rsatadi. Jon boshiga xizmatlar hajmining pastligi ushbu yo‘nalishda muammolar mavjudligini bildiradi. Bu esa xizmatlar sektorining haqiqiy samaradorligini cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Jarayonlar samaradorligi (0.09) mintaqaviy korxonalar faoliyati ko‘rsatish jarayonlari nisbatan barqaror ishlayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu ko‘rsatkich yuqori emasligi ichki jarayonlarni optimallashtirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va mintaqaviy korxonalar faoliyati tezligini oshirish zarurligini anglatadi. Raqamlashtirish darajasi (0.06) ham o‘rtacha baholangan. Bu korxonalarda raqamli texnologiyalar joriy etilayotganini, lekin ular hali samaradorlikni keskin oshirish darajasiga yetmaganini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalish kelajakda asosiy o‘sish manbai bo‘lishi mumkin. Hududiy balans eng past ko‘rsatkichga ega (0.022).

Bu xizmatlarning asosiy qismi markaziy hududlarda, xususan Qarshi shahrida jamlanganini va viloyatning boshqa hududlarida xizmatlar yetarli rivojlanmaganini bildiradi. Bu nomutanosiblik umumiy samaradorlikni pasaytiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Umumiy hisob-kitoblarga ko‘ra, korxonalarning umumiy samaradorligi 63% ni tashkil etadi, bu esa o‘rtacha darajani anglatadi. Bu natija sektor rivojlanayotganini ko‘rsatsa-da, hali katta zaxiralar mavjudligini bildiradi.

Dissertatsiyaning “**Mintaqa korxonalar faoliyati boshqaruvini takomillashtirish mexanizmlari**” nomli uchunchi bobida Mintaqaviy korxonalar

[20] Muallif tomonidan KPI ko‘rsatkichlari va ulush koeffitsiyentlari asosida ishlab chiqilgan.

faoliyatini raqamli boshqaruv platformasi konseptual modelini takomillashtirish, Mintaqaviy korxonalar faoliyatini samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va Mintaqada korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishni istiqbolli ko’rsatkichlarining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashning strategik ssenariylari ishlab chiqilgan.

Qashqadaryo viloyatida raqamli boshqaruv platformasi shakllanish bosqichida bo‘lib, infratuzilma va talab omillari nisbatan yaxshi rivojlangan, biroq xizmatlarni to‘liq raqamlashtirish, innovatsiyalarni kengaytirish va hududiy tenglikni ta’minlash yo‘nalishlarida sezilarli zaxiralar mavjud. Iqtisodiy jihatdan bu model “o‘sishning ekstensiv bosqichidan intensiv bosqichiga o‘tish zarurati” mavjudligini ko‘rsatadi (9-jadval).

9-jadval

**Raqamli boshqaruv platformasini takomillashtirishning kengaytirilgan modeli (Qashqadaryo viloyati misolida)[21]**

| Yo‘nalish | Takomillashtirish elementi | Iqtisodiy ko‘rsatkich | Real holat (Qashqadaryo) | Taklif etilayotgan model |
|---|---|---|---|---|
| **Raqamli infratuzilma** | Platformalar integratsiyasi (ERP, CRM, API) | DI = IntS / TS | Tizimlar alohida ishlaydi | Yagona integratsiyalashgan platforma |
| **Ma’lumotlar boshqaruvi** | Big Data va analitika | DA = DV / TV | Ma’lumotlar to‘liq ishlatilmaydi | Real vaqt analitika (real-time analytics) |
| **Sun’iy intellekt** | AI asosida qaror qabul qilish | AI = AD / TD | AI deyarli joriy etilmagan | Predictive analytics va AI boshqaruv |
| **Mijozlar bilan ishlash** | Omni-channel xizmatlar | OC = MC / TC | Asosan an’anaviy xizmatlar | Mobil, onlayn va offline integratsiyasi |
| **Platforma samaradorligi** | Avtomatlashtirish darajasi | AU = AP / TP | Qisman avtomatlashtirilgan | To‘liq avtomatlashtirish (end-to-end) |
| **Innovatsiya** | Raqamli xizmatlar ulushi | IN = DS / TS | Past daraja (~0.25) | Yangi xizmatlar (fintech, e-commerce) |
| **Kiberxavfsizlik** | Axborot xavfsizligi | CS = SP / TP | Zaif tizimlar | Kuchli himoya va risk boshqaruvi |
| **Iqtisodiy samaradorlik** | Platforma ROI | ROI = (NB − C) / C | O‘rtacha samaradorlik | Yuqori ROI va xarajat optimallashtirish |

9-jadval korxonalarda raqamli boshqaruv platformasini takomillashtirishning iqtisodiy asoslarini kompleks tarzda aks ettiradi va unda keltirilgan har bir yo‘nalish korxona samaradorligini oshirishning muhim omili samaradorligida namoyon bo‘ladi. Qashqadaryo viloyatida raqamli transformatsiya jarayoni boshlangan bo‘lsa-da, u hali tizimli va integratsiyalashgan bosqichga o‘tmagan.

Qashqadaryo viloyati korxonalarining 2015–2025 yillar davomida iqtisodiy va strategik samaradorlik ko‘rsatkichlari barqaror o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Xususan, xizmatlar hajmi 2015-yildagi 1,1 trln so‘mdan 2025-yilda 4,2 trln so‘mga yetgan bo‘lib, bu hududiy iqtisodiyotning sezilarli kengayganligini anglatadi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligi ikki baravardan ortiq oshib, bir xodimga to‘g‘ri keladigan samaradorlik darajasi 82,4 mln so‘mga yetgan (10-jadval).

[21] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

10-jadval

**Qashqadaryo viloyati korxonalari samaradorligi ko‘rsatkichlari dinamikasi (2015–2025 yy.)**[22]

| Yil | Xizmatlar hajmi Q (mlrd so‘ m) | Meh-nat unum-dorligi MU (mln so‘ m/xodim) | Rentabellik R (%) | Xarajatlar samaradorligi XS | Avto-matlash-tirish darajasi AD (%) | Innovatsion xizmatlar ulushi IU (%) | Mijozlar sodiqligi MS (%) | Bozor ulushi BU (%) | ESG barqaror rivojlanish indeksi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2015** | 1 120 | 38.4 | 8.6 | 0.52 | 12 | 0.8 | 42 | 4.1 | 0.31 |
| **2016** | 1 285 | 41.7 | 9.1 | 0.55 | 14 | 1.0 | 45 | 4.5 | 0.34 |
| **2017** | 1 476 | 45.9 | 9.8 | 0.58 | 17 | 1.2 | 48 | 5.0 | 0.37 |
| **2018** | 1 732 | 50.6 | 10.7 | 0.61 | 21 | 1.5 | 51 | 5.6 | 0.41 |
| **2019** | 2 015 | 56.8 | 11.9 | 0.65 | 25 | 1.9 | 54 | 6.3 | 0.46 |
| **2020** | 1 864 | 53.2 | 9.5 | 0.59 | 28 | 2.1 | 50 | 5.9 | 0.44 |
| **2021** | 2 246 | 61.4 | 11.8 | 0.67 | 31 | 2.4 | 56 | 6.8 | 0.51 |
| **2022** | 2 842 | 69.7 | 12.9 | 0.72 | 35 | 2.8 | 59 | 7.5 | 0.57 |
| **2023** | 3 418 | 75.3 | 13.6 | 0.75 | 38 | 3.0 | 61 | 8.2 | 0.61 |
| **2024** | 4 036 | 79.8 | 14.1 | 0.77 | 39 | 3.2 | 63 | 8.9 | 0.65 |
| **2025** | 4 244 | 82.4 | 14.5 | 0.79 | 40 | 3.3 | 60 | 10.0 | 0.68 |

Tahlillarga ko‘ra, avtomatlashtirish va innovatsion xizmatlar ulushi yil sayin oshgan bo‘lib, bu raqamli transformatsiya jarayonlarining korxonalarda faol joriy etilayotganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyin raqamli boshqaruv va innovatsion texnologiyalar asosida rentabellik hamda xarajatlar samaradorligi sezilarli yaxshilangan. Bundan tashqari, mijozlar sodiqligi va bozor ulushi ko‘rsatkichlarining o‘sishi korxonalar raqobatbardoshligining kuchayganligini bildiradi. ESG barqaror rivojlanish indeksining 0,31 dan 0,68 gacha oshishi esa hududiy korxonalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillarining bosqichma-bosqich shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Grafik tahliliga ko‘ra, 2020-yilda pandemiya va iqtisodiy cheklovlar sabab qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish va innovatsion boshqaruv tizimlari hisobiga samaradorlik tez tiklangan. Ayniqsa, 2021–2025 yillarda ERP/CRM tizimlari, raqamli monitoring va innovatsion xizmatlar ulushining ortishi samaradorlik indeksining yuqori sur’atlarda o‘sishiga olib kelgan. Trend modeli asosida prognoz qilinadigan bo‘lsa, kelgusi yillarda ham hududiy korxonalar samaradorligi barqaror o‘sishda davom etishi va raqamlashtirish darajasining oshishi bilan birga umumiy iqtisodiy natijalar yanada yaxshilanishi kutiladi.

[22]Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan




**3.2.2-rasm. Qashqadaryo viloyati korxonalari samaradorligi indeksining 2015–2025-yillardagi o‘zgarish dinamikasi[23] Trend modeli:**

$$SEt=0.028t+0.29$$

Mazkur trend modeli Qashqadaryo viloyati korxonalari samaradorligi 2015–2025 yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Modeldagi SEtSE_tSEt - samaradorlik indeksi, ttt esa vaqt omilini ifodalaydi. Trend tenglamasidagi 0.028 koeffitsiyent har yili korxonalar samaradorligi o‘rtacha 2.8 foiz punktga oshib borayotganini anglatadi (11-jadval).

11-jadval

**Qashqadaryo viloyati korxonalari samaradorligi ko‘rsatkichlarining trend prognozi (2026–2030 yy.)[24]**

| Yil | Xizmatlar hajmi Q (mlrd so‘ m) | Mehnat unumdorligi MU (mln so‘ m/xodim) | Rentabellik R (%) | Xarajatlar samaradorligi XS | Avtomatlashtirish darajasi AD (%) | Innovatsion xizmatlar ulushi IU (%) | Mijozlar sodiqligi MS (%) | Bozor ulushi BU (%) | ESG barqaror rivojlanish indeksi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **2026** | 4 615 | 86.7 | 15.0 | 0.81 | 43 | 3.5 | 64 | 10.8 | 0.71 |
| **2027** | 4 980 | 91.3 | 15.6 | 0.84 | 46 | 3.8 | 66 | 11.7 | 0.74 |
| **2028** | 5 436 | 96.5 | 16.2 | 0.87 | 49 | 4.1 | 68 | 12.6 | 0.77 |
| **2029** | 5 972 | 102.8 | 16.9 | 0.90 | 52 | 4.5 | 70 | 13.5 | 0.81 |
| **2030** | 6 584 | 109.4 | 17.5 | 0.94 | 56 | 4.9 | 72 | 14.6 | 0.85 |

Qashqadaryo viloyati korxonalarida 2026–2030 yillarda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari barqaror o‘sishda davom etishini ko‘rsatmoqda. Xususan, xizmatlar hajmi 2030-yilga borib 6,5 trln so‘mdan oshishi prognoz qilinmoqda. Bu hududiy korxonalarda raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Mehnat unumdorligi ham yil sayin oshib, 2030-yilda bir xodimga 109 mln

[23] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.
[24] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

so‘mdan ortiq qiymat yaratish darajasiga yetishi kutilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining optimallashuvi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ortishi bilan bog‘liq. Rentabellik darajasi va xarajatlar samaradorligi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligi kuchayishini bildiradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish darajasi 56 foizga, innovatsion xizmatlar ulushi esa 5 foizga yaqinlashishi hududiy korxonalarning innovatsion iqtisodiyot modeliga bosqichma-bosqich o‘tayotganligini ko‘rsatadi. Mijozlar sodiqligi, bozor ulushi va ESG barqaror rivojlanish indeksining oshishi esa korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini kuchaytiradi. Natijada Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy korxonalar samaradorligining kompleks o‘sishi va barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyasi shakllanishi prognoz qilinmoqda.

## Xulosa

1. Mintaqaviy korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda yagona raqamli platformani shakllantirish strategik zarurat ekanligi asoslab berildi. Takomillashtirilgan konseptual model korxonaning ishlab chiqarish, moliya, logistika, marketing va inson resurslarini yagona integratsiyalashgan tizim orqali boshqarish hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ilmiy asoslandi.
2. Raqamli boshqaruv platformasi konsepsiyasi ERP, CRM, Big Data, sun’iy intellekt hamda bulutli texnologiyalar integratsiyasiga tayanadi. Ushbu texnologik majmua korxonalarning ichki va tashqi axborot oqimlarini jipslashtirish, resurslar sarfini optimallashtirish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish orqali korxona raqobatbardoshligini oshiradi.
3. ERP, CRM, Big Data, sun’iy intellekt hamda bulutli texnologiyalar integratsiyasiga tayanuvchi raqamli boshqaruv platformasi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu texnologik majmua axborot oqimlarini jipslashtirish, resurslar sarfini optimallashtirish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish orqali korxona raqobatbardoshligini oshirishi isbotlandi.
4. Mintaqaviy korxonalar samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida investitsiya faolligi, innovatsiyalarni joriy etish darajasi, kadrlar salohiyati, raqamli infratuzilma va boshqaruv sifati aniqlandi hamda ularning o‘zaro ko‘p omilli bog‘liqligi ekonometrik modellarda asoslab berildi.
5. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasining ortishi mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, eksport hajmi hamda rentabellik ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar darajasi past bo‘lgan korxonalarda operatsion xarajatlar ulushi yuqoriligi va boshqaruv samaradorligi yetarli emasligi tasdiqlandi.
6. Mintaqa korxonalari samaradorligini oshirishning ustuvor ko‘rsatkichlari (raqamli iqtisodiyot ulushi, avtomatlashtirish darajasi, ESG indeksi, eksport salohiyati) tanlab olindi hamda ushbu indikatorlar asosida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi.

7. Qashqadaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish va sanoat ishlab chiqarish hajmi (54 118 mlrd so‘m) ortgan bo‘lsa-da, resurslardan foydalanish va mehnat unumdorligi (108,2 mln so‘m/xodim) maksimal potentsialga yetmagani aniqlandi hamda ularni raqamli texnologiyalar orqali qayta qurollantirish zarurati asoslab berildi.

8. Ishlab chiqilgan 6 ta vaznli indikator bo‘yicha Qashqadaryo viloyatidagi korxonalarning integral strategik samaradorlik darajasi 60–65% diapazonida shakllangani aniqlandi hamda ushbu ko‘rsatkichni oshirish rezervlari belgilab berildi.

9. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasida daromadlar o‘sishi (31,8%) va foyda ortganiga qaramay, rentabellik darajasi 11,0% ga pasaygani diagnostika qilindi. Yirik korxonalarda raqamli investitsiyalar qaytimi (ROI) hamda energiya sig‘imini nazorat qilish orqali mahsulot birligiga xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.11.03**
**ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ТОХИРОВА НИГОРА ЗОКИРЖОН КИЗИ**

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

**08.00.12 – Региональная экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ**
**диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Карши – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.3.PhD/Iqt7398**

Докторская диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Научный руководитель:** | **Оманов Рустам Фармонович**<br>кандидат экономических наук, профессор |
| **Официальные оппоненты:** | **Халимов Жавлонбек Шахриёрович**<br>доктор экономических наук, доцент |
| | **Рузиев Зафар Икромович**<br>кандидат экономических наук, профессор |
| **Ведущая организация:** | **Термезский государственный университет** |

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/2025.27.12.I.11.03 при Каршинский государственный университет, которое состоится «26» 11 2026 года в 16⁰⁰ часов. Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz.

С диссертацией доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинский государственный университет (регистрационный номер №586). Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10).

Автореферат диссертации разослан «13» 11 2026 года.

(Протокола рассылки №43 от «13» 11 2026 года).

**Д.Х. Набиев**
Председатель совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

**Г.А. Набиев**
Учёный секретарь совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

**А.О. Очилов**
Председатель научного семинара при совете по присуждению учёных степеней д.э.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность темы диссертации.** Во всём мире цифровая трансформация становится одним из ключевых факторов экономического роста, укрепления конкурентоспособности предприятий и повышения эффективности производства. По данным Международного союза электросвязи (International Telecommunication Union - ITU), в 2025 году число интернет-пользователей в мире достигло около 6,0 млрд человек, или 74% населения планеты. В 2024 году этот показатель составлял 5,8 млрд человек, или 71%. Тем не менее в 2025 году 2,2 млрд человек в мире не имели возможности пользоваться интернетом или не пользовались им[25]. По данным Eurostat, в 2025 году 52,7% предприятий Европейского союза использовали платные облачные вычислительные услуги. Для сравнения: в 2014 году доля предприятий, пользовавшихся такими услугами, составляла лишь 17,8%[26]. Вместе с тем важное научно-практическое значение имеет определение того, насколько широкое внедрение цифровых технологий влияет на экономические результаты предприятий, какова его роль в повышении их финансово-экономической эффективности и в какой степени используются имеющиеся возможности. Поэтому актуальность настоящего исследования определяется необходимостью оценки взаимосвязи между эффективностью предприятий и уровнем их цифрового развития, выявления влияющих факторов и разработки механизмов повышения эффективности цифровой трансформации.

В мире всё более актуальными становятся научные исследования, направленные на оценку экономической результативности внедрения искусственного интеллекта, Big Data, IoT, ERP, CRM, Business Intelligence и облачных технологий для повышения эффективности деятельности предприятий. По данным Eurostat, в 2025 году 20,0% предприятий Европейского союза использовали технологии искусственного интеллекта, что на 6,5 процентного пункта больше, чем в 2024 году[27]. Эти тенденции усиливают необходимость комплексной оценки влияния цифровой трансформации на экономическую эффективность предприятий. В этой связи приоритетными научно-практическими задачами являются интеграция финансовых и нефинансовых показателей на основе систем KPI и Balanced Scorecard, эконометрическое моделирование влияния цифровых технологий на экономическую результативность и совершенствование организационно-экономических механизмов управления, основанного на данных.

В Новом Узбекистане цифровая трансформация отраслей экономики и регионов, внедрение на предприятиях современных информационных систем и технологий цифрового управления, автоматизация производственных процессов и процессов оказания услуг, а также повышение эффективности

---

[25] International Telecommunication Union (ITU). Facts and Figures 2025: Internet use. Geneva: ITU, 2025. URL: https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2025/10/15/ff25-Internet-use

[26] Eurostat. 53% EU enterprises used paid cloud services in 2025. News article, 3 February 2026. URL: https://ec.europa.eu/eurostat/en/web/products-eurostat-news/w/ddn-20260203-1

[27] Eurostat. 20% of EU enterprises use AI technologies. 2025-yil 11-dekabr. URL: https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20251211-2

хозяйствующих субъектов относятся к важным направлениям экономического развития. По данным Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, в январе-июне 2026 года объём услуг связи и информатизации в республике достиг 51,9 трлн сум, а реальный темп роста оказанных рыночных услуг составил 16,9%[28]. По данным Управления статистики Кашкадарьинской области, в январе-июне 2026 года валовой региональный продукт области вырос на 8,4% по сравнению с соответствующим периодом прошлого года, промышленное производство - на 8,3%, объём услуг - на 15,8%. Вместе с тем индекс инвестиций в основной капитал составил 76,4%, что означает снижение объёма инвестиций по сравнению с соответствующим периодом прошлого года. Эти показатели усиливают необходимость эффективного использования производственных, финансовых, трудовых и технологических ресурсов на предприятиях региона, комплексной оценки уровня цифровой трансформации и определения её влияния на результативность деятельности предприятий[29]. Исходя из этого, большое теоретическое и практическое значение имеют совершенствование механизма повышения эффективности предприятий региона в условиях цифровой трансформации, интеграция инструментов цифрового управления с системами KPI и Balanced Scorecard, выявление факторов, влияющих на эффективность, и научное обоснование перспективных параметров развития предприятий Кашкадарьинской области.

Нормативно-правовые основы повышения эффективности предприятий региона в условиях цифровой трансформации в Узбекистане тесно связаны с приоритетными задачами, определёнными в Указе Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» и мерах по её эффективной реализации», в постановлении от 28 апреля 2020 года № ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства», а также в постановлении от 14 октября 2024 года № ПП-358 «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года». Кроме того, законы Республики Узбекистан от 9 декабря 2015 года № ЗРУ-395 «Об электронном правительстве», от 24 июля 2020 года № ЗРУ-630 «Об инновационной деятельности» и от 25 декабря 2019 года № ЗРУ-598 «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» [30] определяют правовые

---

